

Davlat tashkilotlari axborot xizmatlari: asosiy xususiyatlari va tushunchalar

Genjemuratova Rita

QDU, Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat tashkilotlari axborot xizmati faoliyati ko‘rib chiqilgan, axborot xizmati tushunchasi aniqlangan, ularning asosiy vazifalari va ish faoliyati yo‘nalishlari ko‘rsatib berilgan. Bundan tashqari davlat tashkilotlari axborot xizmatlari bilan OAV larning o‘zara aloqasining samarali yo‘nalishlari ta’kidlab o‘tilgan.

Kalt so‘zlar: Axborot xizmati, davlat boshqaruvi, kommunikatsiya, jamiyat va hukumat aloqasi, ommaviy axborot vositalari, imidj.

Davlat boshqarishida jamoatchilik bilan aloqalar vazifalari amalga oshiriladi. Jamoatchilik bilan aloqalar xizmati davlat va hokimliklar boshqarishining o‘zviy bir qismi va ular siyosiy yechimlarni qabul qilishni optimallashtirishni amalga oshiradi. Jamoatchilik bilan aloqalar xizmatina suyangan holda hukumat to‘loqanli ravishda o‘zining kommunikativ va axboriy vazifalarini amalga oshiradi.

Davlat tashkilotlarida ish olib boradigan PR-xizmati ish olib borishining bir nechta asosiy yo‘nalishlari bor:

- Fuqoralar va tashkilotlar bilan aloqani o‘rnatish va kengaytirish. Bu birinchi navbatda ijtimoiy tashkilotlar, partiyalar va harakatlar, diniy oqimlar va boshqalar;
- Hukumat tomonidan qabul qilinayotgan yechishlardan xalqni xabardor qilish. Bul jamiyatning barcha a'zolari yoki ayrim guruhlarini axborotlar bilan ta'minlashni amalga oshiradi;
- huquqat va davlat tashkilotlari xodimlari harakatlariga jamiyatning qarashlarini tahlil qilish;
- ijtimoiy-siyosiy jarayonni basharot qilish, davlat tashkilotlarini tahliliy ma'muotlar bilan ta'minlash.

Davlat tashkilotlari imidjini shakllantirishning asosiy qurollaridan biri OAV lar hisoblanadi. Har qanday hukumat OAV lar yaxshi aloqalar o‘rnatishga harakat qiladi, nimaga deganda hukumat jamiyat bilan ikki tomonlama aloqa o‘rnatganda

OAV dan foydalanadi. OAV ikki asosiy vazifani amalga oshirgan holda keng ko‘lamdagi tashkilotchilik imkoniyatlariga ega: bir tomondan hukumat sub'ekti sifatida jamiyatning ijtimoiy hayoti, siyosiy jarayonlarni yoritgan holda davlat siyosatini amalga oshiradi, ikkinchi tomondan esa, hukumatning bir bo‘g‘ini sifatida davlat tashkilotlari ishlariga ta'sir qiladigan jamiyatda ijtimoiy-siyosiy qarashlar bilan qadriyatlarni shakllantiradi.

Bugungi kuni dasturiy medialar bilan qatorda hukumat tashkilotlari faoliyatida boshqarish va axboriy resurslarga ega bo‘lgan yangi medialar shakllanib bormoqda. Ya.N.Zasurskiyning fikricha: «ommaviy auditoriyada orasida mass-media o‘z o‘rnini yo‘qotayotganga uxshaydi, sababi fuqoralar ko‘pchilik holatlarda axborotlarni internet-portallari, bloglar va mobil telefonlari dasturlaridan olishga harakat qilmoqda» [1]. Uxshash fikrni O.N. Savinova ham bildirgan edi: «Zamonaviy matbuotning harakat etish xususiyatlaridan biri sifatida ommaviy axborot vositalarining axborotlarni tarqatishda monopolist bo‘lishdan qolmoqda, kuchli axborot oqimlari bilan raqobatga tushishga majbur bo‘lmoqda – bular, axborot agentliklari, PR-tashkilotlari, internet»[2].

Yangi medilar (gazetalarning onlayn nusqalari jurnallar, axborot agentliklari, radio, televideniye, ixtisoslashgan mavzuli saytlar, elektron kutubxonlar, mualliflik bloglar, videoxostinglar) dasturiy medialardan qator ustunliklarga ega: chiqimlarning kamligi, axborotlarni yoritish va tarqatishning tezligi, multimediamiaviylik, interaktivlik. Dasturiy va yangi medialarning bir-biriga birikishi yuqori bo‘lishi natijasida bir qator OAV turlarining biri-biri bilan aralashib ketishi davom yetmoqda.

Bugungi kuni davlat tashkilotlari axborot xizmatlarining jurnalistlar bilan munosabati yuqori darajada samarali bo‘lishi kerak, dunyo mass-media tarqatayotgan axborotlar tahlilidan bog‘liq[3].

Davlat tashkilotlari matbuot-xizmati OAV dan maqsadli ravishda ijtimoiy fikrni shakllantirishda foydalanadi. OAV dan axborotlarni boshqarish sifatida foydalanish qo‘yidagicha amalga oshiriladi:

- shaxsiy axborot oqimini shakllantirish uchun. O‘z tashkiloti haqidagi ma'lumotlar ustudan monopoliya o‘rnatish uchun davlat tashkilotlari haqida axborotlarni doimiy ravishda OAV lar yotqazib berish nisbatiga amalga oshiriladi;
- Axborot oqimlarini segmentlashtirish. Ya'ni ma'lum bir maqsad hisobidan, axborotlarni manipulyatsiyalash nisbatiga amalga oshiriladi[4].



O‘zbekiston Respublikasida ham davlat tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini tashkil etish va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qator qonun-hujjatlari qabul qilgan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 22 sentyabrdagi “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining jamoatchilik bilan aloqalarini rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 203-sonli qarori qabul qilingan. Mazkur hujjatga muvofiq, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari faoliyati to‘g‘risida aholi, milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarini axborot bilan ta‘minlash samaradorligini oshirish maqsadida, davlat hokimiyati organlariga quyidagi ko‘rsatmalar berilgan:

1) o‘z idoralari xodimlari umumiy soni doirasida axborot xizmatlarini tashkil etib, ularning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

- idora rahbariyati tomonidan belgilanadigan axborot siësatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish;

- milliy ommaviy axborot vositalarida idora faoliyati sohasida normativ-huquqiy hujjatlarning chop etilishini ta‘minlash;

- milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida mazkur idora faoliyatining dolzarb jihatlarini, shuningdek, tegishli sohada amalga oshirilaëtgan yagona davlat siësatini ëritish;

- Internet tarmog‘ida idora veb-resurslarini tashkil etish, ularning samarali faoliyat yuritishini ta‘minlash [5].

Ushbu qarorda axborot xizmatining asosiy vazifalari ta‘kidlab o‘tilgan. Bundan ko‘rinadiki hokimiyat tashkilotlari axborot xizmatlari jamoatchilik davlat tomonidan qabul qilinayotgan va amalga oshirilib kelayotgan reformalarning jamiyatga ta‘sirchanligini oshirish uchun mahalliy va horij ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish lozimligi masalalari ta‘kidlab o‘tiladi.

«Axborot xizmatlari uchun amaliy qo‘llanma: Jamoatchilik bilan samarali aloqa» qo‘llanmada axborot xizmatlarining jurnalistlar va OAV lar bilan aloqa o‘rnatishi masalalariga aloqida e‘tibor beriladi: «Jurnalistlar bilan hamkorlik samarali bo‘lishi uchun axborot xizmati xodimlari aholi o‘rtasida axborot tarqatishda OAVning rolini to‘g‘ri tushunishi va baholashi kerak. Axborot xizmati respublika va mahalliy OAVning to‘liq ro‘yxatini shakllantirib olishi zarur. Axborot xizmati bilan hamkorlikdan eng ko‘p manfaatdor bo‘lgan jurnalistlarning qo‘shimcha ro‘yxatiga ham ega bo‘lish kerak. Bunday ro‘yxat matbuot relizlari va

boshqa axborotni tarqatish vaqtida, shuningdek, axborot xizmati tomonidan tashkil etiladigan turli tadbirlarga jurnalistlarni taklif etish paytida zarur bo‘ladi»[6].

Demak, davlat tashkilotlari axborot xizmati keng ko‘lamdagi vakolatlariga ega: optimal boshqarish sharoitlar yaratadi, ziddiyatli holatlarni boshqarishni o‘z zimmasiga oladi, ko‘pchilik holatda yechim qabul jarayoniga ta'sir qiladi. Axborot xizmati hukumat va jamiyatning konstruktiv aloqa o‘rnatishi ta'minlaydi. Bundan tashqari davlat tashkilotlari axborot xizmatlarining ishlarining samarali tashkil etilishiga qo‘yidagi omillar ta'sir qiladi:

- Axborot xizmatining OAV vakillari bilan samarali aloqa o‘rnatishi va jurnalistlar bilan birgalikda qo‘chma tadbirlarni tashkil etish yaxshi samara beradi;

- Davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni jamoatchilikka tez yetqazib berish uchun ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan keng ko‘lamda foydalanish lozim;

- Axborot xizmatida ish olib borayotgan xodimlarning doimiy ravishda o‘z bilim va ko‘nikmalarini oshirib borishi ham ish samoradorligini oshirishga xizmat qiladi;

- Axborot xizmati davlat tashkilotining ish faoliyatini keng ko‘lamda ochib beradigan ijtimoiy rolklarni tayyorlar va keng yoyishni amalga oshirishi lozim bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Засурский Я.Н. Эпоха массовых коммуникаций еще не закончилась // Материалы Международной конференции «СМИ и глобальные перемены». Факультет журналистики МГУ. М., 2005. 21–22 октября. С.1.

2. Савинова О.Н. Пресса на пороге перемен // Журналист. 2007. № 5. С. 26.

3. Почепцов Г.Г. Паблик рилейшнз, или Как успешно управлять общественным мнением. М., 1998. С. 209.

4. Чумиков А.Н. Связи с общественностью: учеб. пособ. 3-е изд. М., 2001. С. 83.

5. <https://lex.uz/ru/docs/1061720>

6. Аxbорот хизматлари учун амалий кўлланма: жамоатчилик билан самарали мулоқот / Н. Қосимова, Г. Бобожонова, Л. Исломова. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2013. 132 б.